

AXSIKENT QAL’ASI QANDAY KO‘RINISHDA BO‘LGAN?

Alijon TURDALIYEV

Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, pfn.,

Turon FA akademigi va professori

Ma’mura TURDALIYEVA

Namangan viloyat pedagogik mahorat markazi

Tasviriy san’at va chizmachilik fanlari metodisti.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21056231>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muallif Farg‘ona davlatining qadi-miy poytaxt shahri bo‘lgan Axsikent va bu shaharning qal’a sifatidagi o‘rni, uning o‘ziga xos xususiyatlari va o‘zi tomonidan bajarilgan ijodiy rangtasvir va grafika ishlarida Axsikent qal’asini tasvirlanishi haqida ma’lumot beradi.*

Kalit so‘zlar: *Axsikent, qal’a, istehkom, zilzila, madaniy qatlam, arxologik topilma, Buyuk Ipak yo‘li, Umarshayx mirzo, Yoqut Hamaviy,*

Qadimshunos olimlar tomonidan “Farg‘ona Afrosiyobi”deya ta’rif berilib, Aysi yoki Axsikent nomi bilan ataluvchi ko‘hna shahar xarobalari bugungi kunda To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Shahand va Gulqishloqlari orasida, Sirdaryoning shimolida do‘ngtepaliklar ko‘rinishida yastanib yotibdi. Mazkur Eski Aysi manzilgohi Farg‘ona vodiysidagi eng yirik arxeologik yodgorlik hisoblanadi.⁵⁹

Namangan viloyatida joylashgan Qadimiy Axsikent yodgorligi "YUNESKO" butunjahon madaniy merosi obyekti xisoblanadi.. Vaholanki, bu obyekt O‘zbekiston tarixi, o‘lkashunoslik, arxeologiya, ekologiya, madaniyatshunoslik, tabiiy geografiya fanlari tarkibidan o‘rin oluvchi qimmatli manbaa va materiallarga ega bo‘lsada, xali fanlarning mazmuniy tarkibiga ham kiritilmagan va bor material-lar ham xali keng ommaga yetib bormagan. Tarixi

⁵⁹ A. Anarbayev. Axsiket stolitsa drevney Fergany. Institut arxeo-logii im. Ya. Gulyamova AN RUz. Tashkent, Izd-vo "Tafakkur", 2013 g. – B 29.

eramizdan avvalgi III asrga borib taqaluvchi bu noyob yodgorlik tarixini chukur o‘rganish, bu katta poytaxt shaharni keng ommaga ko‘rsatish, bu o‘lkada kamolga yetgan jahonga mashhur allomalarni elga tanishtirish kechiktirib bo‘lmas vazifa sifatida yuzaga chiqmoqda.

Kichik Osiyolik mashxur sayyox, olim Yoqut Hamaviy “Mo‘jamu –lbuldon” (“Shaharlarni tasvirlovchi kitob”) asarida shunday yozadi: “...Agar siz shaharning o‘rtasidagi katta qo‘rg‘onga chiqib, undan Farg‘ona atrofiga nazar solsangiz, xuddi qog‘ozga chizilgan xaritaga yoki rangli suratga o‘xshash manzaraga ko‘zingiz tushadi. Bu o‘lkaning bosh shaxri (poytaxti) Axsikatdir. Axsikat-Farg‘ona tomonda bir ulug shahar bo‘lib, Sayhun (Sirdaryo) daryosi yoqasidagi tekis go‘zal vodiya joylashgan. Ichki shahar juda ulkan mudofaa istehkomiga ega. Axsikent shahri devori kadimdan to‘rtta darvozali bo‘lib, darvozalarning har biri o‘z nomi bilan atalgan. Imoratlari loydanyasalgan. Shahar ichida va qo‘rg‘on atrofida oqar suvlar, katta xovuzlar va bog‘lar bor”(2).

Bu yer Movarounnahrda eng xushmanzara joylardan biri", deydi yoki XII asr oxiri XIII asr o‘rtalarida yashab o‘tgan geografik va tarixchi olim Muxammad Najib al-Bakron esa o‘zining "Jahonnoma" asarida "Farg‘ona Movarounnaxr xududiga qarashli viloyat. uning poytaxti shahri Axsikat deb ataladi. Nixoyatda xushhavo joy ..." deya ko‘rsatib o‘tadi.⁶⁰

1913 yilning aprel hamda iyun-iyul oylarida Rossiya imperatori huzuridagi Geografiya jamiyatiining Turkiston bo‘limi topshirig‘iga ko‘ra Kastanye I.A. Namangan uyezdiga qarashli Axsikentda tarixiy-etnografik tadqiqotlar o‘tkazadi.

Kastanye I.A. jarlar ustida yozar ekan, shaharning shimoliy qismi-dagi handakning shimoliy-g‘arbida harbiy muhandislik inshootiga o‘xshash yarim ko‘milgan ko‘rinishdagi joy mavjudligi, uning etagini esa aholi paxta va qovun ekish uchun dalaga aylantirganligini yozgan edi.“Boburnoma”da tasvirlangan

⁶⁰ Y. Qosimov. Qadimgi Farg‘ona sirlari. Namangan. 1992 y.

Umarshayx mirzo soldirgan qo‘shimcha jarlar shular bo‘lishi kerak, degan xulosani bergan.⁶¹

Mashhur sharqshunos, akademik V.Bartold "Mo‘g‘illar istilosi davrida Turkiston” asarida o‘rta asrlar mualliflari bergan ma’lu-motlarga asoslangan xolda, Axsikent shahrini uch qismdan: arki a’lo, (O‘rda, shahriston, (ichki shahar), va rabod (tashqi shahar)dan iborat deb ko‘rsatgan edi. Arkning o‘zida amir saroyi, zindon (qamoqxona), xazina va umuman ma’muriy devon, shahristonda jome’ masjidi, ichki bozor, aholi yashaydigan mahallalar, rabodda tashqi bozor, hunarmandchilik korxonalari, maishiy binolar joylashgan. Ark va shahristonning atrofi baland mudofaa devorlari bilan o‘ralgan bo‘lib, shaharning Mardikush, (Buxoradagi kabi), Koson, Jome’ masjid xamda Regxona nomli to‘rtta darvozasi bo‘lgan. Ayni vaqtning o‘zida shahriston ham ichki, ham tashqi qismdan iborat bo‘l-gan. Har ikkala shahriston baland devorlar bilan o‘rab olingan edi. V. Bartold o‘sha asarida Ibn Havqal va Maqsidiy asarlaridagidek Axsikentning darvozalari beshta, deb ko‘rsatgandi. Darvozalarni beshta deb talqin etilishi ham, yuqorida nomi qayd etilganidek, to‘rtta deyilishi ham to‘g‘ri ekanligi tadqiqotlar natijasida aniq-langan. Chunki beshinchi darvoza yo‘lga emas, qazilgan xandak, ya’ni suv yo‘liga qurilgan ko‘prik bo‘lib, u ko‘tarib qo‘yiladigan, kerak paytda esa tushirib qo‘yiladigan, ya’ni harbiy maqsadlarni hisobga olingan inshoot-darvoza bo‘lgan.⁶²

Tarixchilardan al-Balazuri Axsikentni Farg‘onaning qadi-miy poytaxti, deb ko‘rsatib o‘tadi. Zahiriddin Muhammad Bobur-ning xolasi Xo‘b Nigorxonimni o‘g‘li Mirzo Muhammad Haydar esa, "Axxi Farg‘ona shaharlarining onasi hisoblanadi", deb yozadi. (4. 53).⁶³

Tarix Eski Axxi “Manoqibi risolai Xazrat Langarbobo Aziziy“ din shul tariqa yozilibdur:”Axxikantni uvlo binosini Eron podshohi No‘shyervoni Odil bino

⁶¹ Kastanye I.A. Istoriko-etnograficheskaya poyezdka Namanganskiy uyezd Ferganskoy oblasti. 1. Razvaliny Axxykenta. –Tashkent, Kommercheskaya tipografiya Ya. P. Edelmana. 1914 g. S 21.

⁶² B. Isoqov. Axsikent Farg‘ona shaharlarining onasi. /Axsikent yodgorligini o‘rganish va uni xalqaro sayyohlik manziliga aylanti-rish istiqbollari. Ilmiy to‘plam. Namangan, 2018 y

⁶³ Mirza Muhammad Haydar. Tarixi Rashidi. –Tashkent: FAN, 1996. –S 53.

qilgon ekan. 521-tarix melodiya No‘shyervon o‘g‘li Xurmuz podshoh Axsini necha vaqt poytaxt qilib anda hukumat surib, so‘ngra 1233-milodiyda Sirdaryo katta toshqin vaqti-da bir zilzila bo‘lib, daryoning suvi Axsini biyoboniga chiqib ketg‘on ekan. Anda buzulub xarob bo‘lg‘on ekan. Ammoki obodligida imorat- lar ikki-uch qabat xishtdan binolar bo‘lib, shahar intixosi Kosongacha borub, Koson ila Axsi o‘rtasi qirq chaqirimlik yo‘l hammasi imorat, bozor bo‘lgan ekan.⁶⁴

1414 yil Mirzo Ulug‘bek Farg‘ona sari qo‘shin tortib, i “Matlai sa‘dayn va majmuai bahrayn” asarida quyidagicha tas-virlanadi: Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragon Andijonga qarab yurdi. Mirzo Amirak Ahmad u yerning qal’alarini mustahkamlab, toqqa chiqib ketdi. Mirzo Ulug‘bek u yerning eng katta qal’asi bo‘lgan Axsi qal’asini muhosara qildi. U shunday qal’aki, uning mezanalari-dan falak boshq(yulduz)larini terib olish va baland xonalari-dan farishtalar g‘ulg‘ulasini eshitish mumkin edi. Qal’a aholisi qal’aning mustahkamligiga mag‘rur bo‘lishib jang aslahalarini hozirladilar. G‘alaba yor lashkar qal’a atrofini zirh ko‘zi-yu ari uyasidek (ilma-teshik) qilib qal’ani egalladi va lashkar ahli qo‘liga ko‘p boyliklar kirdi. Mirzo Ulug‘bek raiyatga tinchlik maydoni va omonlik makonidan o‘rin berdi hamda Poyanda bakovulni kutvol (Kutvol-qal’a boshlig‘i) tayinlab, Andijon tomon yo‘l oldi”.⁶⁵

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida Umarshayx mirzo poytaxt qilgan Axsini quyidagicha tasvirlaydi: “...Sayhun suyining shimoli tarafilag‘i qasabalar: bir Axsidur. Kitoblarda Axsikat bitarlar. Nechukkim Asiriddin shoirni Asiriddin Axsikatiy derlar. Farg‘onada, Andijondin so‘ngra mundin ulug‘roq qasaba yo‘qtur. Andijondin g‘arb sori to‘qqiz yig‘och yo‘ldur. Umarshayx mirzo muni poytaxt qilib edi, Sayhun daryosi qo‘rg‘onini ostidin oqar. Qo‘rg‘oni baland jar ustida voqe bo‘libtur. Handaqining o‘rniga amayq jarlardur.

⁶⁴ Is’hoqxon to‘ra Ibrat. Turkiston viloyatining gazet i №48 ,23 iyun 1913 yil. Istoriya drevnego goroda Axsy v Ferganskoy oblasti

⁶⁵ Abdurazzoq Samarqandiy . “Matlai sa‘dayn va majmuai bahrayn”. 1- jild. Birinchi qism. –Toshkent: O‘zbekiston, 2008. –B. 255.

Umarshayx mirzokim, muni poytaxt qildi, bir–ikki martaba tashqarroqdin yana jarlar soldi. Farg‘onada muncha berk qo‘rg‘on yo‘qtur. Mahallloti qo‘rg‘ondin bir shar‘iy yiroqroq tushubtur”.⁶⁶

“Boburnoma”da yana bir e‘tiborli jihat bor. Bu Aysi ko‘prigi masalasi. Bobur 1502-1503 yillar voqealarini yoritir ekan, Aysida ko‘prik borligini, kechasiga unga qo‘riqchi qo‘yilmagaligi tufayli, Ahmad Tanbal ko‘prikdan o‘tib Aysiga kirib kelgaligini yozgan edi: “...Ko‘prikka kishi qo‘ymoq kerak edi, ko‘prikka ham kishi qo‘ymaduk.

Betajribalikdin mundoq o‘zillar bo‘ldi. Tong boshida Tanbal yetdi. Uch ming yarog‘lik kishi bila kelib ko‘prikdin o‘tib arkka kirdi.... “.⁶⁷

Aysi qal‘asi haqida 3.M. Boburning "Boburnoma" asarida shun-day qaydlar bor: "...Aysi ko‘rg‘oni baland jar ustida voqe bo‘lubtur, imoratlar jar yoqasida edi. Ushbu tarixda (Hijriy 899 yil) dushan-ba kuni ramazon oyining to‘rtida (1494 yil 8 iyunda) Umarshayx mirzo jardin kabutar va kabatarxona bila uchub shunqor bo‘ldi.

So‘ngi yillarida arxeolog olimlar I.Ahrorov, A. Anarbayevlar ko‘hna Axsikentning XI-XII asrlarga doir madaniy qatlamlaridan bir necha ko‘chani aniqlash imkoniga ega bo‘ldilar. Bu ko‘chalar katta shaharning shimoliy va sharqiy darvozalariga, markaziy bozor hamda temirchi, misgar, zargarlar, bakkollar, savdogarlarning mahalla-lariga olib boradigan qilib qurilgan edi.

Temuriylar davridagi Aysi shahri 1620 yilda ruy bergan katta falokat, g‘oyatda kuchli yer qimirlashi zilzila oqibatida xalokatga uchradi. Bu haqda yangi bir qator asosli manbaalar Axsikent xalqaro ilmiy-tadqiqot jamoat birlashmasi olimlari M. Mirsaydullakv, T. Qozoqov, N. Otajonovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham berilgan.

⁶⁶ Muhammad Bobur. Boburnoma. –T., Yulduzcha, , 1989 y. - B 8.Zahiriddin

⁶⁷ Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. –T., Yulduzcha, , 1989 y. - B 100-101.

Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov Marg‘ilon shahrining 2000 yilligiga bag‘ishlangan tantanali maro-simdagi nutkida: "Farg‘ona vodiysining o‘zida latif shahar deb nom olgan Qo‘kon, kadimiy Andijon, go‘zal Namangan, ko‘hna Axxi-kabi tariximizda chukur iz qoldirgan shahar va qo‘rg‘onlarning nom-larini ulug‘lash va ularning ham qutlug‘ sanalarini keng miqyosda nishonlash, bularning barchasi bizning oldimizda turgan katta vazifadir" deb ta’kidlagani ham bu masalaga katta e’tibor zarurligini ko‘rsatadi. Chindan ham ko‘hna Axsikent, uning bunyodkor xalqi, shahar turmushi, ishlab chikarishi, hayot tarzi, ma’rifati va madaniyati haqida bugungi avlodlarga keng miqyosda ma’lumotlar berish fursati keldi“. ⁶⁸

Shu o‘rinda bizning tomonidan Axsikent qal’asini ko‘rinishini tiklashdagi sa’yi-harakatlarimiz Mustaqillikning dastlabki yil-larida ishlangan, xozirda “Namangan viloyat tarixi va madaniyati muzeyi”da saqlanayotgan “Axsikent qal’asi. XII asrda”. (75x105). Mato, moybo‘yoq. 1994 y.) deb nomlangan rangtasvir asari ko‘pchilik tomoshabinlar va tarixchi tadqiqotchilar e’tiborini kozongan. Darvoqe, bu asar aynan 2018 yili Marg‘ilon shahrining 2000 yilligi tantanalari ko‘rgazmasida "Eng noyob eksponat" nominatsiyasi bo‘yicha mukofotlangan edi. (Ilova rasmga qaralsin).

Kartinada Sirdaryo bo‘yida baland jarlar ustida joylashgan, baland va mustahkam muhofaza devorlari bilan o‘ralgan ko‘hna va qadimiy tariximizning guvohi bo‘lgan qal’a-shahar tasvirlangan. Ushbu rangtasvir asari Axsikentga doir tarixiy manbalarda berilgan ma’lumotlarga mos ravishda ishlangan. Bu asar yangidan, ilk bora yaratganligi bois, mavjud tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar va zaruriy ma’lumotlar bilan tanishib chiqilgan va shu soha mutaxassislari bilan fikrlashilgan.

⁶⁸ Axsikent: Xotiralar, tadqiqotlar, maqolalar, lavhalar, /Tuzuvchilar: R.Ummatov, I.Yusupov, E. Mirzaliyev. - T., 2019 y

Taniqli arxeolog olim A.Anarbayevning ilmiy faoliyati O‘rta Osiyoning, jumladan, Farg‘ona vodiysining qadim va o‘rta moddiy-madaniyati, obodonchiligi tadqiqotlariga bag‘ishlangan. Bu olim juda kup yillardan buyon Fargona vodiysining qadimgi poytaxt shaharlaridan biri eski Axsida (Axsikent) olib borgan tadqiqotlari bilan yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

Qadimgi Xitoy manbalarida Farg‘ona va Axsikent bitta joy ekanligi xaqida ma’lumotlar bor.

Eski Axsini buzulgan tarixi 1030 –milodiyda bo‘lg‘on ekan. (1621 yil). Andin buyon mazkur Axsini hech podshohlardan yoki fuqarolardan obod qilg‘on yo‘q. Dehqonlar va o‘tinchilar har xil nima narsa topib olurlar. Chunonchi, mis asboblari va shishalar, har xil toshlar chiqadir. Ko‘p yerlari daryoga ketgandir alholda ham imoratlarga aksari xishtlarni andin olurlar.

Rassom ayniqsa qal‘aning salobatini, o‘sha davr tarixchi-lari ko‘rsatib o‘tgan tavsiflarga mos xolda bo‘lishini, o‘sha ta’riflarda berilgan xom g‘ishtin devorlar va binolari xom g‘ishtdan ekanligini xam ifodalab berishga xarakat qilgan.

Eski Axsini buzulgan tarixi 1030 –milodiyda bo‘lg‘on ekan. (1621 yil). Andin buyon mazkur Axsini hech podshohlardan yoki fuqarolardan obod qilg‘on yo‘q. Dehqonlar va o‘tinchilar har xil nima narsa topib olurlar. Chunonchi, mis asboblari va shishalar, har xil toshlar chiqadir. Ko‘p yerlari daryoga ketgandir alholda ham imoratlarga aksari xishtlarni andin olurlar..⁶⁹

2001 yilda Axsikentda o‘tkazilgan xalqaro anjumanda bu xakda keng ma’lumotlar berildi.⁷⁰

Taniqli arxeolog olimlar I.Ahrorov, A.Anarbayevlar tomoni- dan turli yillarda olib borilgan natijasida shahristonning quyi qatlamlari eramizdan

⁶⁹ Is’hoqxon to‘ra Ibrat. Turkiston viloyatining gazetasi №48, 23 iyun 1913 yil. Istoriya drevnego goroda Axsy v Ferganskoy oblasti

⁷⁰ A. Anarbayev. "O‘zbek davlatchiligi tarixida qadimgi Fargona." // Akademik Yaxyo G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti. "O‘zbek xalq va davlatchiligi tarixi" respublika ilmiy seminari-ning ma’ruza matnlari. (Namangan. 2001 yil. 15-16 may.)

avvalgi qazilmalar III -II asrlarga taaluqli ekanligi ma’lum bo’ladi. Mustaxkamlangan mudofaa devorlari, xom g’ishtdan qurilgan, 4-5-6 xonali uylar, suvoq va turli bo’yoqlar surilgan uylardagi o’choqlar, supalar va quduqlar, omborxona va oshxonalar topildi. Bizning tomonimizdan ishlangan qal’a ko’ri-nishlarida shu jihatlariga e’tibor qaratildi. (3, 4 rasmlar).

Musavvir A.Turdalikovning fikricha: "Axsikent. XII asrda" nomli rangtasvir asari aynan shu davrlardagi gullab yashnagan Axsi albatta bizning xayolotimiz va tafakkurimiz mahsulidir. Bu bilan biz dunyo tamaddunida o’z o’rniga va muhim ahamiyatga e’ra kal’a shaharni o’z tasavvurimiz asosida ko’rsatmokchi bo’lganmiz. Biz Axsikent tasviri-ni aynan va aniq shunday ko’rinishda bo’lgan degan yakdil fikrdan yiroqmiz. Shunday bo’lsa-da, bu manzara asari bizningcha Axsikent qal’a shahar haqida umumiy tasavvur beruvchi dastlabki izlanish sifatida qadrlil va aytishimiz mumkinki, keyingi tasvirlarda Axsikent-ning yanada anik va umumiy geografik joyla-shuvi, ark ko’rinishlari, kal’a shahar ichkarilari, binolari, jome’ masjidi, bog’u-rog’lar va xovuzlar, shaharning rabot qismi ko’rinishlari ham aks etadi.

Yodgorlikning bebaho xazina ekanligi, uni chukur o’rganish va jahon xalqlariga ilmiy asosda ma’lum qilib borish zarurligi

Va ochik muzey tashkil kilish takliflari berilmoqda. Masalan, 1994 yil yanvar oyida Axsikent yodgorligi bilan kizikib, yaqindan tanishib chikkan BMTning O’zbekistondagi o’sha vaqtdagi vakili Xolid Malik o’z taasurotlari va kimmatli fikr-mulohaza-larini izhor kildi. Xalkaro YUNESKO tashkilotining 2007 yil oktyabr oyidagi Shanxay Konferensiyasida Axsikent arxeologik yodgorligi tashkilotning maxsus ro’yxatiga rasmiy ravishda kiritildi.⁷¹

Hozirgi kunlarda yurtimizda O’zbekiston Respublikasi Prezi-dentining "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida"gi

⁷¹ Axsikent – qadimgi Farg’ona poytaxti. Tuzuvchilar: Yu. Ismailov, B.Ro’zinov. Namangan nashriyoti, 2013 y

(2017 yil 7 fevral) Karori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 16 oktyabrda "Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanidagi "Axsikent" arxeo-ogiya merosi obyektni muhofaza qilish va tadqiq etish, yodgorlik majmuasini tashkil etish xaqida" gi (№831) Karorini bajarilishi yuzasidan bir kator ishlar amalga oshirilmokda va turli amaliy taklif loyihalar tayyorlanmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Axsikent yodgorligi tarixini ommalashtirish, bizningcha: *Birinchidan*, Qadimiy Axsikent tarixiy yodgorligini ochik osmon ostidagi muzey sifatida asrab avaylash, undan topilgan tarixiy, arxeologik, san’at va madaniyat ashyolarni, kimmatli manbalarni shu yerning o‘zida tashkil etiluvchi muzeyga qo‘yish - O‘zbekiston tarixini yanada chuqurroq o‘rganishga olib keladi, bu esa mustaqilligimizning yutuqlari sifatida g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, katta magistral yo‘l bo‘yida joylashgan yodgorlik atrofini obodonlashtirib, zamonaviy xolga keltirish, obod sayl-gohga aylantirish ham mumkin bo‘ladi, chunki yodgorlikni yonginasi-dan azim Sirdaryoni oqib o‘tishi, bunday tabiiy va qulay geografik sharoitga ega ekanligi ham, xalqimizni, qolaversa xorijoy sayyox va turistlarni jalb etishning keng imkoniyatlarini beradi.

Uchinchidan, tadqiqotchi olimlar, ijodkorlar oldida avvalo Axsikentni poytaxt va Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan qal’a shahar sifatida asoslab, uning to‘liq rekonstruktiv ko‘rinishi tiklash, Axsikentni tabiiy ekologik xolatini saqlab qolib, undan ochiq va yopiq muzey sifatida foydalanish sharoitlrini beradi.


Bu bilan esa butun omma, yoshlar, turistlar, sayohatchilar, dam oluvchilar bahramand bo‘ladigan va jahon e’tirofidagi yana bir turistik manzil tashkil etilishiga yo‘l ochiladi. Aynan bizning Axsikent tarixiga oid kartina va loyihalarimiz esa, ana shu ezgu maqsadlarda dastlabki muhim qadam sifatida qadrlil va katta ahamiyat kasb etadi.

Xullas, Axsikent tarixini o‘rganish o‘lkamiz tarixining yozil-magan va o‘rganilmagan tarixiga yangi sahifalar bo‘lib qo‘shiladi.

Adabiyotlar:

1. А. Анарбаев. Ахсикет столица древней Ферганы. Институт археологии им. Я. Гулямова АН РУз. Ташкент, Изд-во "Тафаккур", 2013 г.
2. Y. Qosimov. Qadimgi Farg‘ona sirlari. Namangan. 1992 y.
3. Кастанье И.А. Историко-этнографическая поездка Наманганский уезд Ферганской области. 1. Развалины Ахсыкента. –Ташкент, Коммерческая типография Я. П. Эдельмана. 1914 г.
4. B. Isoqov. Axsikent Farg‘ona shaharlarining onasi. /Axsikent yodgorligini o‘rganish va uni xalqaro sayyohlik manziliga aylanti-rish istiqbollari. Ilmiy to‘plam. Namangan, 2018 y
5. Mirza Muhammad Haydar. Tarixi Rashidi. –Tashkent: FAN, 1996.
6. Abdurazzoq Samarqandiy . “Matlai sa’dayn va majmuai bahrayn”. 11 jild. Birinchi qism. –Toshkent: O‘zbekiston, 2008 y.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. –Toshkent. Yulduzcha.1989 y.
8. Axsikent: Xotiralar, tadqiqotlar, maqolalar, lavhalar, /Tuzuvchilar: R.Ummatov, I.Yusupov, E. Mirzaliyev. - T., " 2019 y
9. Исҳоқхон тўра Ибрат. Туркистон вилоятининг газети №48 ,23 июнь 1913 йил. История древнего города Ахсы в Ферганской области.
10. A.Anarbayev. "O‘zbek davlatchiligi tarixida qadimgi Fargona." // Akademik Yaxyo G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti. "O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi" respublika ilmiy seminarining ma’ruza matnlari. (Namangan, 2001 yil 15-16 may).
11. Axsikent – qadimgi Farg‘ona poytaxti. Tuzuvchilar: Yu. Ismailov, B.Ro‘zinov. “Namangan” nashriyoti, 2013 y.

ILOVALAR




A.Turdaliyev. “Axsikent. XII asr”.

*75X115. M., m. Namangan tarixi va madaniyati Davlat muzeyi ekspozitsiyasi. 1994
y.*




A.Turdaliyev. “Axsikent - Farg‘ona davlatining poytaxti”.

85X150. M., m. 2026 y. Shaxsiy kolleksiya.



A.Turdaliyev. “Axsikent”. (Umumiy ko‘rinshi).

40X60. Q., q. 2026 y. Shaxsiy kolleksi.



A.Turdaliyev. “Axsikent qal’asi atroflarida”.

40X60. Q., q. 2016 y. Shaxsiy kolleksiya.